

## SUDGACHA BO‘LGAN BOSQICHDAGI PROTSESSUAL MUDDATLARGA OID XALQARO STANDARTLAR

Sohibqulov Doston Shuhrat o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: [sohibqulovdoston@gmail.com](mailto:sohibqulovdoston@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20487878>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichida protsessual muddatlarning inson huquqlarini ta‘minlashdagi o‘rni xalqaro-huquqiy standartlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, shaxsni ushlab turish, qamoqqa olish masalasini sud tomonidan ko‘rib chiqish, himoyachidan foydalanish, ishni oqilona muddatda yuritish hamda sud nazorati kafolatlari BMT va Yevropa inson huquqlari tizimi mezonlari asosida yoritiladi. Tadqiqotda protsessual muddatlar faqat texnik-huquqiy tartib emas, balki shaxs erkinligi, aybsizlik prezumpsiyasi va odil sudlovga bo‘lgan huquqni ta‘minlovchi muhim kafolat ekani asoslantiriladi.

**Kalit so‘zlar:** sudgacha bo‘lgan ish yurituv, protsessual muddat, ushlab turish, qamoqqa olish, habeas corpus, oqilona muddat, sud nazorati, himoya huquqi, xalqaro standartlar.

## МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СРОКОВ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ

**Аннотация:** В данной тезисной работе анализируется значение процессуальных сроков на досудебной стадии уголовного процесса с точки зрения международно-правовых стандартов защиты прав человека. Особое внимание уделяется вопросам задержания лица, судебного контроля за применением меры пресечения в виде заключения под стражу, права на защиту, рассмотрения дела в разумные сроки, а также гарантий недопущения необоснованного ограничения свободы личности. В работе обосновывается, что процессуальные сроки являются не только организационно-правовым механизмом ведения уголовного судопроизводства, но и важной гарантией обеспечения права на свободу, презумпции невиновности и справедливого правосудия.

**Ключевые слова:** досудебное производство, процессуальные сроки, задержание, заключение под стражу, судебный контроль, habeas corpus, разумный срок, право на защиту, международные стандарты.

## INTERNATIONAL STANDARDS ON PROCEDURAL TIME LIMITS AT THE PRE- TRIAL STAGE

**Annotation.** This thesis analyzes the importance of procedural time limits at the pre-trial stage of criminal proceedings from the perspective of international legal standards for the protection of human rights. Particular attention is paid to detention, judicial control over pre-trial custody, the right to legal defense, the requirement to conduct proceedings within a reasonable time, and guarantees against unjustified restriction of personal liberty. The paper argues that procedural time limits are not merely an organizational and legal mechanism of criminal procedure, but also an essential guarantee of the right to liberty, the presumption of innocence, and fair trial rights.

**Keywords:** pre-trial proceedings, procedural time limits, detention, pre-trial custody, judicial control, habeas corpus, reasonable time, right to defense, international standards.

## KIRISH

Jinoyat protsessida sudgacha bo'lgan bosqich shaxs huquq va erkinliklariga eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan jarayonlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda shaxs ushlab turilishi, so'roq qilinishi, unga nisbatan ehtiyot chorasi qo'llanilishi, dalillar to'planishi va ayblov shakllanishi mumkin. Shu sababli sudgacha bo'lgan bosqichdagi protsessual muddatlar masalasi nafaqat milliy jinoyat-protsessual huquq, balki xalqaro inson huquqlari huquqining ham markaziy masalalaridan biri sifatida qaraladi.

Protsessual muddatlarning belgilanishi jinoyat ishini tez va samarali yuritish uchun zarur bo'lsa-da, ularning asosiy vazifasi faqat protsessual intizomni ta'minlashdan iborat emas. Ular shaxsning noqonuniy yoki asossiz erkinlikdan mahrum etilishining oldini olish, himoya huquqini real ta'minlash, tergov organlari faoliyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish va ishni asossiz cho'zilishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Shu jihatdan protsessual muddatlar inson huquqlarining amaliy kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

## ASOSIY QISM

Sudgacha bo'lgan bosqichdagi protsessual muddatlarga oid eng muhim xalqaro standartlardan biri shaxsni ushlab turish va uni zudlik bilan sud nazoratiga taqdim etish talabi hisoblanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasida har bir shaxs erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekani, hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi belgilangan.<sup>1</sup> BMT Inson huquqlari qo'mitasining 35-sonli umumiy izohida 48 soat odatda ushlangan shaxsni sud huzuriga olib kelish va sud muhokamasiga tayyorlash uchun yetarli muddat ekani, 48 soatdan ortiq kechikish esa mutlaqo istisno holat sifatida asoslantirilishi lozimligi qayd etilgan.<sup>2</sup>

Mazkur standartning mazmuni shundan iboratki, erkinlikdan mahrum etilgan shaxsning taqdiri faqat tergov yoki prokuratura organi ixtiyorida qolib ketmasligi kerak. Shaxs ushlanganidan keyin qisqa muddat ichida mustaqil va xolis sud organi uning ushlab turilishi qonuniyligi, zarurligi va asoslanganligini tekshirishi lozim. Bu talab xalqaro huquqda habeas corpus kafolati sifatida e'tirof etiladi. Habeas corpus instituti shaxs erkinligini davlatning asossiz aralashuvidan himoya qiluvchi eng muhim protsessual mexanizmlardan biridir.

Ushbu yondashuv O'zbekiston milliy qonunchiligida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga ko'ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekani, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi belgilangan. Shuningdek, hibsga olish, qamoqqa olish va qamoqda saqlashga faqat sud qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi hamda shaxs sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Ikkinchi muhim xalqaro standart — qamoqqa olish ehtiyot chorasi istisno chorasi bo'lishi va uning muddati oqilona chegaralarda saqlanishi prinsipidir. Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 5-moddasida hibsga olingan har bir shaxs darhol sudya yoki sud hokimiyatini amalga oshirish vakolatiga ega boshqa mansabdor shaxs huzuriga olib borilishi hamda oqilona muddatda sud qilinishi yoki sudgacha ozod qilinishi kerakligi belgilangan.<sup>3</sup> Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotida qamoqda saqlashni davom ettirish uchun faqat jinoyat sodir etganlikka

<sup>1</sup> Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. 1966-yil

<sup>2</sup> BMT Inson huquqlari qo'mitasining 35-sonli umumiy izohi: “9-modda — erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi”. 2014-yil.

<sup>3</sup> Yevropa inson huquqlari konvensiyasi. 1950-yil.

gumon mavjudligi yetarli emas, balki qochib ketish, dalillarga ta'sir ko'rsatish, guvohlarga bosim o'tkazish yoki yangi jinoyat sodir etish xavfi kabi aniq va real asoslar bo'lishi talab qilinadi.<sup>4</sup>

Bu mezon sudgacha bo'lgan bosqichda “tergov manfaatlari” degan umumiy asos bilan shaxsni uzoq muddat qamoqda saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Xalqaro standartlarga ko'ra, qamoqqa olish jazo emas, balki protsessual ehtiyot chorasi hisoblanadi. Shuning uchun u aybsizlik prezumpsiyasi bilan muvozanatda qo'llanilishi kerak. Agar shaxsga nisbatan yumshoqroq ehtiyot chorasi, masalan, garov, uy qamog'i, kafillik yoki boshqa cheklovlar yetarli bo'lsa, qamoqqa olish chorasi qo'llanilmasligi lozim.

Uchinchi muhim yo'nalish — ushlangan yoki qamoqqa olingan shaxsning himoyachidan erta foydalanish huquqidir. BMTning jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordamga oid prinsiplari va UNODC tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarda huquqiy yordamga erta kirish imkoniyati adolatli sudlovning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Erta bosqichda advokat ishtiroki shaxsga o'z huquqlarini tushunish, noqonuniy bosimdan himoyalani, protsessual muddatlar buzilishini e'tiroz qilish va ushlab turish qonuniyligini sud tartibida tekshirtirish imkonini beradi.<sup>5</sup>

Bu standartning ahamiyati shundaki, sudgacha bo'lgan bosqichda olingan ko'rsatmalar va to'plangan dalillar keyingi sud muhokamasi natijasiga jiddiy ta'sir qiladi. Agar shaxs dastlabki so'roq yoki protsessual harakatlarda himoyachisiz ishtirok etsa, bu holat uning himoya huquqini cheklashi, dalillarning ishonchliligiga shubha tug'dirishi hamda odil sudlov prinsiplariga zid oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois xalqaro standartlar himoyachidan foydalanish huquqini faqat sud bosqichida emas, balki shaxs erkinligi cheklangan ilk daqiqalardan boshlab ta'minlashni talab etadi.

To'rtinchi standart — ishni oqilona muddatda yuritish prinsipidir. Sudgacha bo'lgan tergovning haddan tashqari cho'zilishi shaxsning huquqiy noaniqlik holatida qolishiga, uning obro'si, oilaviy hayoti, mehnat faoliyati va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquqda “oqilona muddat” tushunchasi qat'iy matematik mezon bilan emas, balki ishning murakkabligi, shaxsning protsessual xatti-harakati, tergov organlarining faolligi va ishning shaxs uchun ahamiyati kabi omillar asosida baholanadi. Yevropa inson huquqlari sudi amaliyotida aynan davlat organlarining sustkashligi yoki harakatsizligi tufayli muddatlarning cho'zilishi inson huquqlari buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

Beshinchi muhim standart — qamoqda saqlash sharoitlari va shaxs qadr-qimmatining himoyasidir. Sudgacha bo'lgan bosqichda shaxs hali sud tomonidan aybdor deb topilmagan bo'ladi. Shu sababli unga nisbatan munosabat aybsizlik prezumpsiyasiga mos bo'lishi kerak. BMTning Nelson Mandela qoidalarini mahkumlar va qamoqda saqlanayotgan shaxslarga inson qadr-qimmatiga mos munosabatda bo'lish, qiynoqlar va shafqatsiz muomalaga yo'l qo'ymaslik, xavfsizlik va sog'liqni saqlash kafolatlarini ta'minlash zarurligini belgilaydi.<sup>6</sup>

Mazkur qoidalar protsessual muddatlar bilan bevosita bog'liq. Chunki shaxsning sudgacha bo'lgan bosqichda uzoq muddat qamoqda saqlanishi uning qadr-qimmatini, sog'lig'i va himoya huquqiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli xalqaro standartlar faqat qamoqqa olishning qonuniy asoslarini emas, balki uning davomiyligi va sharoitlarini ham nazorat qilishni talab qiladi.

O'zbekiston qonunchiligi nuqtayi nazaridan ham ushbu standartlar dolzarb ahamiyatga ega. Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishlarini yuritish tartibi belgilangan bo'lib, uning vazifasi

<sup>4</sup> European Court of Human Rights. Guide on Article 5 of the European Convention on Human Rights.

<sup>5</sup> UNODC. Early Access to Legal Aid in Criminal Justice Processes: A Handbook for Policymakers and Practitioners.

<sup>6</sup> United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners — Nelson Mandela Rules.

jinoyatlarni tez va to‘la ochish bilan birga shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bundan tashqari, O‘zbekiston qonunchiligida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi bo‘yicha sud nazorati joriy etilgan bo‘lib, tegishli iltimosnoma material kelib tushgan paytdan e‘tiboran sakkiz soat ichida, ushlab turish muddati tugashidan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi lozimligi belgilangan.

Shuningdek, “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi Qonunda qamoqda saqlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, shaxs sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, huquq va erkinliklarni muhofaza qilish hamda aybsizlik prezumpsiyasi belgilangan. Bu normalar xalqaro standartlar bilan uyg‘un bo‘lib, sudgacha bo‘lgan bosqichda shaxsning protsessual maqomini himoya qilishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Sudgacha bo‘lgan bosqichdagi protsessual muddatlarga oid xalqaro standartlar jinoyat protsessining inson huquqlariga mos yuritilishini ta‘minlovchi asosiy mezonlardan biridir. Ushbu standartlarning mazmuni shaxsni ushlab turishning qisqa va aniq muddat bilan cheklanishi, qamoqqa olishning faqat sud nazorati ostida qo‘llanilishi, qamoqda saqlashning oqilona muddatdan oshmasligi, himoyachidan erta foydalanish huquqi va qamoqda saqlash sharoitlarining inson qadr-qimmatiga mos bo‘lishini talab qiladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, protsessual muddatlar faqat protsessual harakatlarni bajarish uchun belgilangan vaqt chegarasi emas. Ular shaxs erkinligi, odil sudlov, himoya huquqi va aybsizlik prezumpsiyasining real kafolati hisoblanadi. Shu sababli milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishda muddatlarning aniq belgilanishi, ularning sud tomonidan samarali nazorat qilinishi va muddat buzilishi oqibatlarining huquqiy jihatdan aniq ko‘rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. 1966-yil.
2. BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 35-sonli umumiy izohi: “9-modda — erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi”. 2014-yil.
3. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi. 1950-yil.
4. European Court of Human Rights. Guide on Article 5 of the European Convention on Human Rights.
5. United Nations Principles and Guidelines on Access to Legal Aid in Criminal Justice Systems.
6. UNODC. Early Access to Legal Aid in Criminal Justice Processes: A Handbook for Policymakers and Practitioners.
7. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners — Nelson Mandela Rules.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
10. O‘zbekiston Respublikasining 29.09.2011-yildagi O‘RQ-298-son “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni.